



## ARAB DUNYOSINING PARADOKSI: QADDAFIY QUDRAT VA CHEKLOVLAR O‘RTASIDAGI SIYOSAT

### Annotatsiya:

Mazkur maqola 1969-1980 yillarda Muammar Qaddafi boshchiligida Liviyada amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar va xalqaro aloqalar tahlilini o‘z ichiga oladi. Maqolada Qaddafi rejimining boshlang‘ich davri, yaxshilanish va cheklovlari, takliflar va xulosa keltiriladi.

### Kalit so‘zlar:

Qaddafi, Liviya, 1969-1980, siyosiy islohotlar, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy sektorda o‘zgarishlar, xalqaro aloqalar.

### Information about the authors

**Qo‘chqorov Temurbek Baxromjon o‘g‘li,**  
Oriental Universiteti o‘qituvchisi

**Ismoilova Feruzaxon Muminjon qizi,**  
Oriental Universiteti talabasi

Dast avval maqolani asosiy qismiga kirishdan oldin, Muammar Qaddafining shaxsiyatiga qisqacha tavsif berib o‘tishni lozim topdim. **Muammar Qaddafi o‘zi kim?**

**Muammar Qaddafi** — XX asrning eng bahsli rahbarlaridan biri. U Liviya xalqiga iqtisodiy yuksalish, ijtimoiy barqarorlik olib kelgan, ammo siyosiy erkinlikni cheklagan rahbar sifatida tarixda qoldi. U qat‘iyatli va g‘oyaviy rahbar sifatida ajralib turgan. Qaddafiy mustamlakachilikka qarshi kurashgan, mamlakat mustaqilligini mustahkamlash va milliy manfaatlarni himoya qilishga intilgan yetakchi edi. Shu bilan birga, uning boshqaruv uslubi ba‘zan avtoritarlik bilan ajralib turgan.

**Muammar Qaddafi** - Muammar Muhammad Abu Minyar al-Qaddafi.

**Tug‘ilgan yili** -1942-yil 7-iyun.

**Tug‘ilgan joyi** - Sirt shahri yaqinidagi Qasr Abu Xadi, Liviya.

**Vafot etgan yili** - 2011-yil 20-oktabr.

**Vafot joyi**- Sirt, Liviya.

Muammar Qaddafi ko‘chmanchi beduin oilasida tug‘ilgan. Uning oilasi kambag‘al edi, ammo Qaddafi yoshlikdan siyosatga, ayniqsa arab millatchiligi va panarabizm g‘oyalariga qiziqqan. U boshlang‘ich maktabni Sirt shahrida tamomlagach, Beng‘ozi harbiy akademiyasiga o‘qishga kirgan. **Tanqidiy-neytral yondashuvlar** esa Qaddafiyga shunday ta‘rif berishgan.

Qaddafini bir vaqtning o‘zida inqilobiy va avtoritar, progressiv va keskin qarama-qarshi fazilatlarini mujassam etgan rahbar sifatida baholaydilar. U Liviya siyosiy va iqtisodiy modernizatsiyasida muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, demokratik jarayonlarni cheklash bilan tanilgan.

1966-yilda u bu akademiyani bitirib, Liviya armiyasida ofitser bo‘ldi. Maktab yillaridayoq isyonkor kayfiyatda bo‘lgan, Misrning o‘sha vaqtlardagi yetakchisi **Jamol Abdulnosirga** havas qilgan va qirol



*Idris* hokimiyatidan norozi yoshlarning maxfiy guruhiga asos solgan Muammar talabalik yillarida “*Erkin ofitserlar ittifoqchi-sotsialistlari*” tashkilotini tuzadi. U *Jamol Abdulnosirning* hokimiyatni qo‘lga olish maqsadida tuzgan “*Erkin ofitserlar*” tashkilotidan ilhomlangandi. *1969-yil 1-sentabrda* Liviya monarxiyasi inqilob orqali ag‘darildi va hokimiyat yosh ofitser Muammar Qaddafi boshchiligidagi “*Erkin zobitlar harakati*” qo‘liga o‘tdi. Bu davr Liviyaning siyosiy tarixida tub burilish davri bo‘lib, u mamlakatni mustaqil yo‘l bilan rivojlantirishga qaratilgan edi. Qaddafi o‘zining arab millatchiligi, sotsializm va islom tamoyillarini uyg‘unlashtirgan o‘ziga xos siyosiy tizimni yaratdi.

#### **Siyosiy islohotlar:**

Qaddafi hukumatni markazlashgan monarxik tizimdan xalq hokimiyatiga asoslangan “*Jamahiriya*” tizimiga o‘tkazdi. 1977-yildan boshlab “*Xalq hokimiyati davri*” e‘lon qilindi. Siyosiy partiyalar taqiqlanib, xalq komitetlari orqali boshqaruv yo‘lga qo‘yildi.

#### **Iqtisodiy o‘zgarishlar:**

*1970*-yillarda neft narxining ko‘tarilishi Liviyaning Afrikaning eng boy davlatlaridan biriga aylantirdi. Qaddafi neft kompaniyalarini milliyalashtirdi, infratuzilmani kengaytirdi, bepul ta‘lim va tibbiy xizmatni yo‘lga qo‘ydi. Shu bilan birga, iqtisodiyot haddan tashqari neftga qaram bo‘lib qoldi.

#### **Ijtimoiy va madaniy soha:**

Ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ayollar huquqlari bo‘yicha muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Savodxonlik darajasi *1970*-yillardagi **25%** dan *1980*-yillarga kelib **70%** ga yetdi.

#### **Tashqi siyosat:**

Qaddafi arab dunyosining birlashuvi tarafdori bo‘lib, Misr, Suriya va boshqa arab davlatlari bilan ittifoq o‘rnatishga harakat qildi. Biroq, AQSh va Yevropa bilan munosabatlar sovuq tus oldi, chunki u G‘arb siyosatini tanqid qildi. Bir tomondan, u xalq hokimiyati, tenglik va sotsial adolatni da‘vat qildi; ikkinchi tomondan esa, barcha siyosiy institutlarni o‘z nazorati ostiga oldi. “*Yashil kitob*”<sup>1</sup> orqali u jamiyat uchun yangicha mafkura yaratdi, biroq bu mafkura amalda erkinlik emas, balki qat‘iy markazlashuvni mustahkamladi.

#### **Ichki siyosat:**

*1969–1980* yillar oralig‘idagi bu davr — qudrat va cheklovlar, mustaqillik va izolyatsiya, boyluk va qaramlik o‘rtasidagi murakkab muvozanatni ifodalovchi tarixiy sahifadir. Shu jihatdan, Qaddafi siyosati Arab dunyosining *ichki paradoksini* ochib beradi: kuchli yetakchilik orqali ozodlik sari intilish, biroq ayni vaqtda shu yetakchilikning o‘zi ozodlikni cheklashi. Ichki siyosatda Qaddafi o‘z rejimining barcha raqiblariga nisbatan o‘ta beshafqatligi bilan ajralib turardi. U fitnalar va davlat to‘ntarishiga har qanday urinishlarga qarshi qattiq kurashgan, bunday harakatlar xorijlik kuchlar tomonidan moliyalashtirishiga ishonchi komil edi. Mamlakatda siyosiy partiyalar va muxolif guruhlar taqiqlanadi. Liviya qonunchiligi ish tashlashlar va namoyishlarga ruxsat bermaydi, *OAV* ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatiladi. *1969* yildan *1994* yilgacha bo‘lgan davrda Qaddafi rejimiga qarshi chiqqan **343** liviyalik halok bo‘lgani rasman tasdiqlangan, ulardan **312** nafari Liviya hududida (**84** kishi qamoqda vafot etgan, **50** kishi inqilobiy tribunallar hukmiga ko‘ra jamoat joylarida otib o‘ldirilgan, **148** kishi aviahalokatlar, avtohalokatlar va zaharlanishlar oqibatida olamdan o‘tgan, yana **20** kishi rejim tarafdorlari bilan qurolli to‘qnashuvlar vaqtida o‘lim topgan, **to‘rt** kishi xavfsizlik xizmati agentlari tomonidan otib ketilgan, **olti** kishi esa tibbiy yordam ko‘rsatish rad etilgani tufayli jon bergan).<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Al-Qaddafi, M. (1975–1979). The Green Book. Tripoli: The Green Book Centre. — Muammar Qaddafi. “Yashil kitob”. Tripoli: Yashil kitob markazi (1975–1979).


<sup>2</sup> Aziz Qarshiyev - [Азиз Қаршиев](#)



Qaddafiy turli terrorchi tashkilotlarga homiylik qilgan, siyosiy maqsadlarda raqiblarni o'ldirish va o'g'irlash bilan shug'ullangan. *AQSh Liviya* rejimini kamida **45** mamlakatning ichki ishlariga aralashishda ayblagan hamda *Liviyan* terrorizmni qo'llab-quvvatlovchi davlatlar ro'yxatiga kiritgan. Masalan, **1986** yilda *G'arbiy Berlindagi* <sup>3</sup>amerikalik harbiylar orasida mashhur bo'lgan diskotekada portlash sodir etilgan. Natijada *uch* kishi halok bo'lib, **200**dan ortiq kishi yaralangan. Portlash *Liviya* maxsus xizmatlari tomonidan uyushtirilganiga oid belgilar aniqlangan. Ammo Liviya maxsus xizmatlari uyushtirgan eng qonli terakt **1988** yilda ro'y bergan. Shotlandiyadagi *Lokerbi* shaharchasi osmonida Londondan Nyu-Yorkka parvoz qilgan *Boeing 747* rusumli yo'lovchi samolyot portlatilishi oqibatida **270** kishi halok bo'lgan. Keyingi yili *Niger* havo kengliklarida Brazzavildan Parijga uchayotgan *DC-10* samolyoti portlatilib, **170** kishi o'ldirilgan. Tekshiruvlar bu jinoyatlarga Liviya razvedka xizmati aloqadorligini ko'rsatgan.

Quyida Muammar Qaddafiy siyosiyosati haqida qisqacha SWOT tahlilini ko'rishimiz mumkin:

1-jadval



#### **Kuchli tomonlari:**

Daromadlaridan ijtimoiy tarmoqlarga investitsiya qilish. Bepul ta'lim, sog'liqni saqlash va turar-joy sohalarida rivojlanish.

**Rahbarlik qobiliyatlari** – Qattiyatli va jasurligi tufayli davlati va xalqini boshqarish vazifasini olgan va o'z davrining eng zakovatli davlat rahbari bo'ldi.

**Zaif tomonlari:** Siyosiy erkinliklarni cheklash, muxolifatni bosish.

Iqtisodiy rivojlanishni nafaqat barqaror, balki uzluksiz ta'minlashda muammolar.

**Imkoniyatlar:** Afrika va arab dunyosida mustaqil siyosiy va iqtisodiy faollikni kuchaytirish. Neftdan olingan daromadlarni boshqa tarmoqlarga kengaytirish imkoni.<sup>4</sup>

**Tahdidlar:** Xorijiy davlatlar bilan murakkab munosabatlar, sanksiyalar ehtimoli. Ichki tribal/qabilalar ziddiyati va siyosiy nazoratning kuchayishi.

1980–1990-yillarda G'arb davlatlari Liviya ustiga sanksiyalar qo'ydi, diplomatik izolyatsiya yanada kuchaydi. 1990-yillarda Gaddafi o'z siyosatini biroz yumshatdi, AQSh va G'arb bilan aloqalarni yaxshilashga harakat qildi. 2000-yillarda Liviya terrorizm bilan aloqasi bo'lgan shubhalarni bartaraf etishga va chet davlatlar bilan dialogga kirishga harakat qildi. **Arab bahori va fuqarolar urushi:** 2011-

<sup>3</sup> U.S. Library of Congress. (1987). Libya: A Country Study. Washington, D.C.: Government Printing Office.

— AQSh Kongress kutubxonasi: Liviya – mamlakat tahlili (198).

<sup>4</sup> Vandewalle, D. (2006). Libya Since Independence: Oil and State-Building. Cornell University Press.



yilda Arab bahori harakati butun Arab olamida yoyildi — Liviya ham bundan mustasno bo‘lmadi. Muxolifat va isyonchilar Qaddafi hukmiga qarshi ko‘chalarga chiqdi, ayniqsa sharqiy Liviya hududlarida. *NATO* va *G‘arb* davlatlari isyonchilarga harbiy va havo yordam berishdi. Qaddafi qo‘silma bilan kurashar ekan, *2011-yil 20-oktabrda Sirt* shahrida isyonchilar tomonidan qo‘lga tushirilib, otib o‘ldirildi. Uning o‘limi xalqaro hamjamiyat tomonidan tanqid ostiga olindi — ba’zi guruhlar bu operatsiyani noqonuniy ekzekutsiya sifatida baholadi.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishim joizki bugungi kunda ham Qaddafi Liviya va Shimoliy Afrika siyosatida katta iz qoldirgan. U siyosiy jihatdan avtoritar diktator sifatida eslanadi. Ba’zilarga ko‘ra, u Liviya infratuzilmasini modernizatsiya qilgan, lekin inson huquqlari buzilishi, repressiyalar va terrorizmga aloqadorligi bois tanqid qilinadi. Hozirgi kunda Qaddafi tarafdorlari va qarshilari o‘rtasida uning roli va ahamiyati bo‘yicha chuqur tafovutli fikrlar mavjud. Meni fikrimcha Muammar Qaddafi davri Livianing siyosiy tarixida murakkab, ammo o‘ziga xos davr bo‘lga. U mamlakatni mustamlakachilikdan ozod qilib, mustaqil siyosat olib borgan bo‘lsa ham, biroq ortiqcha markazlashuv va siyosiy erkinliklarning cheklanishi oxir-oqibat inqirozga olib keldi. *1969–1980* yillar tajribasi mustaqil davlatlar uchun iqtisodiy erkinlik va siyosiy muvozanatning muhimligini ko‘rsatadi deb o‘ylayman. Ushbu davr Liviya tarixida muhim bosqich bo‘lib, uning saboqlari keyingi yillar uchun qimmatli bo‘lishi mumkin. *“Har bir inqilob o‘z ichida paradoksni yashiradi — erkinlik uchun kurash, lekin hokimiyatni markazlashtirish orzusi.”* — Muammar Qaddafi davri ana shunday ikki qutb orasida kechgan tarixdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations. (1980–2020). Reports on Libya: Human Development and Political Transitions. United Nations Publications.  
Birlashgan Millatlar Tashkiloti: Liviya o‘id inson taraqqiyoti va siyosiy o‘zgarishlar bo‘yicha hisobotlar (1980–2020).
2. BBC News. (2021, March). Libya under Gaddafi: A complex legacy. Retrieved from <https://www.bbc.com/news>  
BBC News: Qaddafi davridagi Liviya – murakkab meros (2021).
3. Encyclopaedia Britannica. (2023). Muammar al-Qaddafi. In Britannica Online Encyclopedia. Britannika ensiklopediyasi: Muammar al-Qaddafi (2023).
4. Vandewalle, D. (2006). Libya Since Independence: Oil and State-Building. Cornell University Press.  
— Mustaqillikdan keyingi Liviya: Neft va davlat qurilishi. 7
5. U.S. Library of Congress. (1987). Libya: A Country Study. Washington, D.C.: Government Printing Office.  
— AQSh Kongress kutubxonasi: Liviya – mamlakat tahlili (198).
6. Al-Qaddafi, M. (1975–1979). The Green Book. Tripoli: The Green Book Centre.  
— Muammar Qaddafi. “Yashil kitob”. Tripoli: Yashil kitob markazi (1975–1979).
7. . International Crisis Group. (2001). Libya: Reform and Resistance. ICG Middle East Report No. 7.
8. — Xalqaro inqiroz guruhi: Liviya – islohot va qarshilik (2001).
9. Aziz Qarshiyev – <https://kun.uz/news/2021/10/22/qazzofiyning-hayoti-va-olimi-10-yil-avval-uni-nega-agdarishgandi>.